

“BAXT VA SHODLIK KUYCHISI – HAMID OLIMJON”

Yuldasheva Aziza

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Musiqqa san’ati” fakulteti “Musiqashunoslik” yo‘nalishi I kurs talabasi

Annotasiya: Mazkur maqolada Hamid Olimjonning hayoti va ijodi, yaratgan asarlari tasvirlangan.

Kalit so‘zlar: Ijod, she‘r, qo‘shiq, doston.

АННОТАЦИЯ: В этой статье рассказывается о жизни и творчестве Хаида Олимджона.

Ключевые слова: Творчество, стихотворение, песня, эпос.

Abstract: This article describes the life and work of Hamid Olimjon, his works.

Keywords: Creativity, poem, song, epic.



Shoir va dramaturg, tarjimon va jamoat arbobi Hamid Olimjon 1909-yilning 12-dekabr kuni Jizzaxda tavallud topgan. Otasi vafotidan so‘ng bobosi- Azim bobo va onasi Komila qo‘lida tarbiya olgan. Adib o‘z bolalik kunlarini “Men bir qora kunda tug‘ildim-u shu on o‘ldim deya yuzlangan” chunki o‘sha paytlarda Turkiston o‘lkasi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy tanglik holatida edi.

Hamid Olimjon 1918-yildan boshlab Jizzaxdagi “Narimonov” nomidagi boshlang‘ich maktabda oqiydi. Rus tili va adabiyotni qunt bilan o‘rganadi. Bo‘lajak shoir 1923-yil o‘rta maktabni tamomlab, Samarqanddagi pedagogika bilim yurtiga o‘qishga kiradi. “Oygul bilan Baxtiyor”, “Zaynab va Omon”, “Semurg” kabi o‘nlab dostonlar, “Muqanna” dramasi hamda ko‘plab lirik she‘rlar muallifidir. Uning “O‘rik gullaganda”, “Hayolimda bo‘lding uzun kun”, “Eng gullagan yoshlik chog‘imda” kabi ko‘pgina she‘rlari qo‘shiqqa aylantirilgan.

Hamid Olimjon 1944-yilning 3-iyul kuni Toshkent shahrida vafot etgan.

Hayolimda bo‘lding uzun kun,

Seni izlab qirg‘oqqa bordim.

Och to‘lqinlar pishqirgan tunda,



Topib ber, deb oyga yolvordim.
Ishon bunga, seni doimo
Esga solur chiroyli tunlar,
Sho'x yulduzlar, salqin saharlar,
Esga solur baxtiyor kunlar.
Toleyimning oshinosi sen,
Sen sevgimning ko'kargan bog'i.
Sening bilan birga iqbolim,
Ishonchimning sen vafo tog'i.
Meni qurshar salqin bir havo,
Suv ustidan tun quyuladi.
Shunda qancha-qancha gaplarni
Esga solib oy ham to'ladi.
Kecha jimjit, yolg'iz to'lqinlar,
Pishqiradi bilmay tinimni.
Hiylagar oy, sehrigar dilbar,
Solib qo'yding yodimga kimni?..

1928-yil Hamid Olimjonning “Bahor” nomli ilk she'riy to'plami dunyo yuzini ko'radi. Ko'p yillardan so'ng Oybek o'zining Hamid Olimjon haqidagi maqolasida ushbu to'plam nomlanishining ramziyligiga urg'u berib o'tadi. “Bahor” nomli to'plami shoir ijodining bahor pallasini o'tayoganda nashrdan chiqdi, deya izohlaydi. To'plam nomiga uning kayfiyati ham monand: ko'tarinkilik, hayoliylik.

Samarqandda ta'limni olib, Toshkentga kelishi, Olimjon hayotidagi yangi va muhim qadamni ifodalaydi. Shoir Uyg'unning xotiralaridan: “Hamid Toshkentga mening ketimdan ko'chib o'tdi. Nochorlik hukm surgan davrlar edi: qog'ozlar tanqis edi. Biz nashriyotlardan olgan uzun qog'oz bo'laklariga yozardik, ehtimol, shu sababli, menda ham, Hamidda ham uzun qog'oz tasmalariga yozish ishtiyoqi saqlanib qolgan”.

Hamid Olimjon gazeta va jurnallarda jurnalist va muharrir sifatida ko'p ishlaydi, lekin o'zining adabiyo faoliyatini ham davom ettiradi. 1930-yillan u “Oygul va Baxtiyor”, “Semurg” kabi baxshilar ijrosidagi dostonlardan ilhomlanib, yirik asarlar yaratadi.

1939-yil Hamid Olimjon O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi mas'ul kotibi etib tayinlanadi va o'limiga qadar, ya'ni 1944-yilgi avtohalokatgacha ushbu lavozimni egallaydi.

Olimjonning she'riy ijodiga M.Gorkiy va V.V.Mayakovskiylar juda katta turtki bergan. Hamid Olimjon — zamonaviylikni kengroq ochib berishga jur'at qilgan birinchi o'zbek shoirlaridandir. Birinchi she'riy to'plami “Bahor” 1926-yil nashrdan chiqqan, ammo muallifning iqtidori “Semurg” (1939), “Oygul va Baxtiyor” (1938), “Diyor” (1939), “Baxt” (1940) kabi dostonlarida namoyon bo'ladi.

Eng sara asarlari – “Zaynab va Omon” dostoni bo'lib, o'zida 30-yillar o'zbek she'riyati xususiyatlarini bog'laydi (1938). Fashist Germaniyasi bilan bo'lib o'tgan urush yillari “Roksananing ko'z yoshlari” (1944) dostoni, “Qurolni qo'lga ol” (1942) she'riy to'plami, “Muqanna” (1942—1943) tarixiy dramasi kabilar yozilgan bo'lib, yuksak mahorat bilan yozilganligini ta'kidlash joiz.



Hamid Olimjonning adabiyotshunoslikka doir maqolalarida o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyot muammolari ko'tariladi, adabiyot va folklor, rus va o'zbek adabiyot bilan uzviylik ko'rib chiqiladi: "Muhammad Amin Muqimiy" (1938), "Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni haqida" (1939), "Navoiy va bizning davrimiz" (1940), "Salom, Pushkin!" (1937), "Tolstoy va o'zbek xalqi" (1938) shular jumlasidan. Hamid Olimjon A.S. Pushkinning "Kavkaz asirasi", "Suv parisi", M.Yu. Lermontovning "Bel", M. Gorkiyning "Chelkash" kabi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Yangi o'zbek she'riyatining kamol topishi, lirik janrlarning rivojlanishi, lirik qahramon tuyg'ularining badiiy mujassamlashtirishda Hamid Olimjonning ham munosib o'rni bor. U tabiatan lirik shoir, nozik hissiyot va kechinmalar musavviridir. Shoir sevgi mavzusiga murojaat qilganida ham, tabiat tasvirini chizganida ham lirik qahramon tuyg'ulari baxt-saodat yog'dulari bilan nurafshon bo'ladi.

Hamid Olimjonning urush davrigacha bo'lgan ijodida "Ofeliyaning o'limi", "Holbuki tun...". "Ishim bordir o'sha ohuda", "Har yurakning bir bahori bor", "Janub kechasida", "Mizimta daryosi", "Daryo tiniq, osmon beg'ubor", "Dunyo go'zal ko'rinur senga" singari lirik durdonalar borki, oradan qancha yillar o'tmasin, ulardagi nafis tuyg'ularshalolasi kitobxonga, she'riyat shaydolariga huzur bag'ishlab kelmoqda. Bu she'rlarida shoir ruh musavviri sifatida namoyon bo'lib, lirik qahramonning nozik tuyg'u va kechinmalarini mohirona tasvirlagani yaqqol ko'zga tashlanadi.

"O'rik gullaganda" she'ri haqida. Hamid Olimjon ijodiy merosida tabiat lirikasiga bag'ishlangan she'rlar ko'plab uchraydi. Ular orasida "O'rik gullaganda" she'ri alohida ajralib turadi. "Derazamning oldida bir tup o'rik oppoq bo'lib gulladi..." satrlari bilan boshlangan she'r o'zbek diyoriga keluvchi bahor nashidasining madhi sifatida yangrab keladi. "O'rik gullaganda" she'ri faqat bahor faslidagi tabiat tasviridan iborat emas. She'rda shoirning ruhiy kayfiyati yetakchilik qiladi. She'rdagi hissiy oqim tabiat tasviridan shoir "men"iga ko'chadi; shoir bilan yellar orasida kichik bir ziddiyat kuzatiladi. Shoir bahorning nafis qilig'iga nisbatan g'ashlik sezmaydi va aytadi:

Mayli, deyman va qilmayman g'ash,
Xayolimni gulga o'rayman;
Har bahorga chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi deya so'rayman.

Ayni banddagi "xayolni gulag o'rash" tabiri chinakam shoirona tafakkur mahsulidir. Shoir bu she'rida qiyosiy tasvir va jonlantirish san'atidan foydalanadi. Natijada o'rik gullari bilan lirik qahramon o'rtasida uyg'unlik bayon qilinadi:

Yuzlarimni silab, siypalab,
Baxting bor deb esadi yellar.
Etgan kabi go'yo bir talab,
Baxting bor deb qushlar chiyillar.

Yellar, shabboda, qushlarning chug'urlashi – barcha-barchasi shoir nazaridan chetda qolmaydi. Quyidagi band she'rning kulminatsiyasi va yechimidek taassurot uyg'otib, unda ziddiyatli hayot va ikki xil vaziyat kuzatiladi:

"Mana senga olam-olam gul,
Umrida hech gul ko'rmay yig'lab



Etagingga siqqanicha ol.
O'tganlarning haqqi ham senda.
Bunda tole har narsadan mo'l,
Har bahorni yig'lab qarshilab
To o'lguncha shu o'lkada qol.
Ketganlarning haqqi ham senda..."

Mazkur she'rda shoirning tuyg'ulari shu darajada teran tasvirlanganki, har qanday vaziyatda o'rik gullashiga doir hodisa tilga olinganida beixtiyor ushbu she'rning mazmun-mohiyati esga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Azimov "Tanlangan asarlar"
2. Z.Mirzayeva, K.Jalilov "Adabiyot"
3. B.Qosimov "Adabiyot"